

TASDIQLAYMAN:

Transport nazorati inspeksiyasi
huzuridagi Jamoatchilik kengashi

 raisi o'rnbosari
A.Boylarov

29 04.2024-y.

**Transport nazorati inspeksiyasi huzurida Jamoatchilik kengashi faoliyatini
yo'lga qo'yish, Kengash a'zolarini tanishtirish, yillikish rejani tasdiqlash va
rejaga asosan mavzu yuzasidan muhokama yi`g'ilishi**

BAYONI.

1-son.

Toshkent shahri

2024-yil, 29-aprel

Raislik qildi

A.Boylarov - Transport nazorati inspeksiyasi
huzuridagi Jamoatchilik kengashi
raisi o'rnbosari

Ishtirok etdilar

Jamoatchilik kengashi a'zolari, Transport
nazorati inspeksiyasi boshqarma va bo'lim
xodimlari

KUN TARTIBI

1. Transport nazorati inspeksiyasi huzurida Jamoatchilik kengashi faoliyatini
yo'lga qo'yish, Kengash a'zolarini tanishtirish;
2. Jamoatchilik kengashi yillik ish rejasini muhokama qilish va tasdiqlash;
3. Transport nazorati inspeksiyasi tomonidan tashkilotning ochiqlik va shaffoflikni
ta'minlash yol'ida olib borilayotgan faoliyati yuzasidan amalga oshirayotgan ishlar
tahlili.

(Boylarov, Hamrayev, Jalolov, Salomov, Xayriddinov...Boylarov)

Kun tartibidagi dastlabki masala yuzasidan inspeksiya boshlig'inining matbuot
kotibi, axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi F.Xayriddinov so'zga
chiqib, Transport nazorati inspeksiyasining tashkil etilganligi, maqomi, vazifalari
haqida ma'lumot berdi.

Shuningdek, inspeksiya o'z faoliyatini jamoatchilik va OAV bilan hamnafas olib borishni maqsad qilganligi bois, Jamoatchilik kengashi faoliyatini ham har tomonlama qo'llab quvvatlashini bildirdi. Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan 2023-yil yakunlariga oid tashkilotlarning Ochiqlik indeksi, va korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyati yuzasidan e'lon qilingan reytingda Transport nazorati inspeksiyasi qoniqarsiz baholanganini bildirdi. Mazkur reytingdagi holatni yaxshilash yuzasidan Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi va boshqa tshkilotlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar va rejalar xususida bat afsil axborot berdi.

Jumladan, inspeksiya tashkiliy tuzilmasida Axborot xizmati tashkil etilganligi va mazkur bo'lim tashabbusi bilan 2 ta press-tadbir (matbuot anjuman va briffing), sohaga oid qator ochiq muloqot shaklidagi ko'rsatuvlarda ishtirok etilgani bayon etildi. Inspeksiya faoliyati rasmiy sahifalar, mahalliy va xorijiy OAVda keng yoritilayotganini bildirdi. Tanqidiy tahliliy materiallarga tezkor javob berish tizimi ham yo'lga qo'yilganligi ta'kidlandi.

Shundan so'ng Jamoatchilik kengashining raisi, rais o'rribosari va a'zolari tanishtirildi. Jamoatchilik kengashining yillik rejasi loyihasi yog'ilganlarga taqdim etildi. Reja Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan e'lon qilingan reytingdagi kamchiliklarni bartaraf etishni inobatga olgan holda ishlab chiqilgani ta'kidlandi. Reja Jamoatchilik kengashi tomonidan maqullandi.

Jamoatchilik kengashi yig'ilishida a'zolar va inspeksiya xodimlari o'zlarining fikr-mulohazalari va savollari bilan ishtiyorok etishdi.

Yuqoridagilarni inobatgaolgan holda, yig'ilish

QAROR QILADI:

1. . Transport nazorati inspeksiyasi huzurida Jamoatchilik kengashining dastlabki yig'ilishi otkazilganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Inspeksiya boshlig'ining matbuot kotibi, axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi F.Xayriddinovning hisoboti ma'lumoti uchun qabul qilinsi.
3. Jamoatchilik kengashining yillik ish rejasi o'rnatilgan tartibda tasdiqlansin hamda inspeksiya rasmiy saytida joylashtirilsin.
4. Inspeksiyada ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash yuzasidan ishlarni yanada takomillashtirish uchun inspeksiya boshlig'iga taklif kiritilsin.
5. Mazkur qaror ijrosini o'z zimmamda qoldiraman.

Jamoatchilik kengashi kotibi



F.Xayriddinov